

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 111 (1172), 2024-yil 6-iyun, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



JSTGA QO‘SHILISH BORASIDA KO‘RILAYOTGAN AMALIY CHORA-TADBIRLAR MUHOKAMA QILINDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 5-iyun kuni Jahon savdo tashkiloti (JST) bosh direktori doktor Ngozi Okonjo-Ivealani qabul qildi.



Uchrashuvda mamlakatimizning JSTga qo‘shilishi borasida ko‘rilayotgan amaliy chora-tadbirlar muhokama qilindi.

Qisqa muddat ichida Ishchi guruhning ikkita yig‘ilishi o‘tkazilgan, a‘zo mamlakatlar bilan faol muzokaralar olib borilayotgani, qishloq xo‘jaligini qo‘llab-quvvatlash shartlari muhokama qilina boshlangani va milliy qonunchilikni tashkilotning me‘yor va qoidalariga muvofiqlashirish ishlari davom etayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Shuningdek, “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish, elektron savdo va raqamli xizmatlar eksportini oshirish sohasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish muhimligi ta‘kidlandi.

Xalqaro savdoni tartibga solish masalalari bo‘yicha o‘zbekistonlik ekspertlarning salohiyatini oshirishga alohida e‘tibor qaratildi. Shu ma‘noda, JSTning ko‘magi bilan O‘zbekistonda Savdo siyosati bo‘yicha kompetensiya markazini tashkil etish taklif etildi.

Davlatimiz rahbari JST bosh direktoriga davra subhatida ishtirok etgani va O‘zbekistonning yetakchi universitetlari talabalari bilan uchrashgani uchun minnatdorlik bildirib, unga Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining faxriy doktori unvoni berilgani bilan tabriklandi.

Uchrashuv yakunida Ngozi Okonjo-Iveala O‘zbekistonning tashkilotga a‘zo bo‘lish yo‘lidagi sa‘y-harakatlarini qo‘llab-quvvatlashini bildirdi.

O‘ZA

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI ANQARAGA KELDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rafiqasi bilan birga Turkiyaga rasmiy tashrif bilan keldi.

Poytaxtning “Esonbug‘a” aeroportida davlatimiz rahbarini Turkiya vitse-prezidenti Javdat Yilmaz va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi. Oliy martabali mehmonlar sharafiga faxriy qorovul saf torddi.

6-iyun kuni ikki mamlakat yetakchilari raisligida oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining uchinchi yig‘ilishi bo‘lib o‘tadi.

Muzokaralar doirasida O‘zbekiston — Turkiya keng qamrovli strategik sheriklik

munosabatlarini rivojlantirish, siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiya, transport-kommunikatsiya, ta‘lim va madaniy-gumanitar sohalarida hamkorlikni kengaytirish masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Tashrif dasturiga muvofiq, ilk bor ikki mamlakat yetakchi korxonalari va kompaniyalari rahbarlari bilan qo‘shma uchrashuv o‘tkazilishi ham rejalashtirilgan.

O‘ZA

Elchi Olgan Bekar:

“TURKIYA VA O‘ZBEKISTON O‘RTASIDAGI HAMKORLIKNI MUSTAHKAMLASH BORASIDA YANGI IMKONIYATLAR ISHGA SOLINADI”



O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘anning taklifiga binoan rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatga keldi. Tashrif doirasida 6-iyun kuni Anqara shahrida oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining uchinchi yig‘ilishi bo‘lib o‘tadi.

Davomi 2-betda

HAJ TADBIRLARI YUQORI SAVIYADA TASHKIL ETILGANI TA‘KIDLANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Musulmonlar idorasi raisi, muftiy shayx Nuriddin Xoliqnazar bilan telefon orqali muloqot qildi.

Davlatimiz rahbari muborak Haj ziyoratiga tayyorgarlik jarayonlari, yurtodshlarimiz uchun yaratilgan sharoitlar, ularning salomatligi va kayfiyati haqida so‘radi.

Shayx Nuriddin Xoliqnazar Shavkat Mirziyoyevga, avvalo, muborak joylarda ibodat fayzi bilan yurgan hojilarimizning salomi va duolarini yetkazdi.

Bu yil ham Haj tadbirlari yuqori saviyada, tartibli tashkil etilgani ta‘kidlandi. Hududlardagi Haj markazlari orqali ishlar uyushqoqlik bilan olib borildi. Vazirlar Mahkamasi boshchiligidagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita, Tashqi ishlar vazirligi, Transport vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi va

boshqa tuzilmalar hamkorligida ziyoratchilar uchun barcha sharoit yaratildi.

Ayni paytda qariyb 12 ming nafar yurtdoshimiz Saudiya Arabistonida bo‘lib turibdi. Jami 15 ming 130 nafar fuqaro Haj ibodatiga muayassar bo‘ladi. Ularga 300 nafar guruh rahbari, 50 nafar oliy toifali shifokor, oshpazlar, tarjimonlar va boshqa ko‘makchilar hamrohlik qiladi.

Bu kabi e‘tibor va sharoitlarni arabistonlik mutasaddilar ham yuqori baholab, O‘zbekiston Prezidentiga hurmat va duolarini izhor etmoqdalar.

Bu yildan boshlab bir yangilik — Saudiya Arabistonida bo‘lib

turgan diniy soha xodimlari hamda qori ziyoratchilar tomonidan Qur‘oni karimni xatm qilish yo‘lga qo‘yildi. Hozirgacha 1 ming 515 ta xatm o‘qilib, yurtimizga tinchlik, xalqimizga farovonlik tilab duolar qilingan.

Davlat rahbari yurtodshlarimiz muqaddas Haj ibodatini mukammal ado etib, sog‘-omon kelishlarini tiladi. O‘zbekistonga qaytgach, hojilar jamiyatimizdagi mehroqibat muhitini mustahkamlash, jaholatga qarshi ma‘rifat bilan kurashish, yoshlar tarbiyasi va oilalar totuvligida ibrat bo‘lishlariga umid bildirdi.

Subhat samimiy va ko‘tarinki ruhda o‘tdi.

O‘ZA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI

KINEMATOGRAFIYA SOHASINI YANADA RIVOJLANTIRISH HAMDA MAMLAKATIMIZ TARIXIGA BAG‘ISHLANGAN FILMLAR TURKUMINI YARATISHGA DOIR CHORA-TADBIRLAR TO‘G‘RISIDA

Kinematografiya sohasini yangi bosqichga ko‘tarish, milliy davlatchiligimizning uch ming yildan ziyod tarixini, buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma‘naviy merosini aks ettiruvchi filmlar turkumini ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida:

1. Madaniyat vazirligi, Fanlar akademiyasi, Kinematografiya agentligi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi, Milliy kinematografiyani rivojlantirish markazi, O‘zbekiston kinoarboblari ijodiy uyushmasi hamda ilmiy-ijodiy jamoatchilikning takliflari asosida 2024-2027-yillarga mo‘ljallangan “Tirik tarix” filmlar turkumini yaratish dasturi (keyingi o‘rinlarda — “Tirik tarix” dasturi) 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Ushbu dastur orqali quyidagi vazifalarni amalga oshirish belgilansin:

xalqimizning qadimiy tarixi va boy madaniyati, azaliy qadriyat va an‘analari,

ezgu orzu-intilishlarini chuqur ilmiy asoslarga tayanib, to‘laqonli aks ettirish;

Vatan ozodligi va ravnaqi yo‘lida kurash olib borgan buyuk sarkarda va davlat arboblarning murakkab hayoti va davlatchilik faoliyatini xolis va haqqoniy ko‘rsatib berish;

tariximizda yorqin iz qoldirgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, alloma va mutafakkirlar, shoir va adiblar, ma‘rifatparvar jadid bobolarimiz, atoqli san‘atkorlarning ilmiy-ijodiy merosi, ularning umumbashariy tamaddun rivojiga qo‘shgan munosib hissasini yuksak g‘oyaviy-badiiy saviyada namoyish etish.

2. Quyidagilar:

a) Kinematografiyani rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha Milliy komissiya (keyingi o‘rinlarda — Milliy komissiya) tuzilsin hamda uning tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Davomi 2-betda

Ma‘naviy yuksalish

O‘ZBEK KINOSINING nurli yo‘li



Prezidentimiz shu yil 16-may kuni O‘zbekiston kino san‘ati muzeyi bilan tanishgach, kinosaroyning ikkinchi qavatida joylashgan ilmiy-ma‘rifiy anjumanlar zalida bir guruh kinoijodkorlar bilan uchrashib, suhbatlashdi. Shu yerda o‘z tashabbusi mahsuli bo‘lgan “Tirik tarix” deb nomlangan 50 ta yangi kinoloyihani qamragan dastur taqdimoti o‘tkazildi. 15-20 daqiqaga rejalashtirilgan uchrashuv va taqdimot chamasi ikki soat davom etdi. Nazarimda, bu tasodifiy emas edi.

“Tirik tarix” — davlatchiligimizning uch ming yillik buyuk tarixidan so‘zlaguvchi muhtasham loyiha (Ikkinchi maqola)

Chunki davlatimiz rahbarining siyosat, iqtisodiyot va ijtimoiy hayot yo‘nalishidagi yuzlab yumush, uchrashuvlardan ortib, ijod ahli bilan jonli muloqot qilish imkoniyati hamisha ham bo‘lavermaydi. Vaholanki, u kishi ziyolilar, ayniqsa, adabiyot va san‘at ahli bilan diyorlashishni juda xush ko‘radi. Ayniqsa, shu davralarda katta-kichik shoirlardan va hatto yosh yigit-qizlar orasida havaskorlari so‘z olib, she‘r yozishini aytga, mashqlaridan o‘qib berishini so‘rab qoladi.

Nazdimda, bu ham muntazam rasmiy jiddiyat bilan o‘tadigan tadbirlar orasida yurtimiz rahnamosi qalbiga alohida ilqlik, ruhiyatiga tiniqlik va kayfiyatiga ko‘tarinkilik

bag‘ishlayotgandek bo‘ladi. Shunday damlarda Prezidentimiz yayrab ketadi, dilkashlikka moyil bo‘lib, dunyo tashvishlaridan bir oz yengil tortadi, chamas. Shundanmi, ijod ahli bilan suhbatlarda hamisha vaqt chegarasini unutishga, kamida uzaytirishga istak sezadi.

Bu safar ham xuddi shunday bo‘ladi. Malayziya Bosh vaziri bilan uchrashuvga tayyorgarlikning g‘oyat tig‘iz pallasida kinochilar bilan bemalol suhbatlashishga rag‘bat ko‘rsatdi. Ochig‘i, suhbatni kuzata turib, o‘zimcha bunday o‘yladim: bu dilkashlik bilan birga zimmasiga yanada zalvatli vazifa yuklanayotgan kino ahlining fikr saviyasi qanday, xalqimiz, jumladan, katta hayot

chorrahalarga kirib kelayotgan farzandu nabiralarimiz ma‘naviy olamiga ta‘sir ko‘rsatadigan, dunyo hamjamiyati oldida milliy va umuminsoy qadriyatlarimizni, o‘zligimizni munosib darajada namoyon eta oladigan kinofilmlar yaratishga qodir, salohiyatli ijodkorlarimiz bormikan, degan teran ma‘no va maqsad ko‘zda tutilgan uchrashuv edi. Ishonch hosil qilish uchun azmoyish olish, qaror qabul qilishdan avval qat‘iy xulosa chiqarish uchun sinov edi bu uchrashuv. Yelkasida ulug‘vor mas‘uliyat turgan davlat rahbarining o‘ziga xos sinovi edi bu.

Davomi 3-betda

Ma'naviy yuksalish

O'ZBEK KINOSINING nurli yo'li



Shuhrat RIZAYEV,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, professor

“Tirik tarix” — davlatchiligimizning uch ming yillik buyuk tarixidan so'zlaguvchi muhtasham loyiha

(Ikkinchi maqola)

dramaturg, senariychilar yozib bergan so'zlarni aytib, tiriklik qiladi. Biroq o'sha fikrlarni tomoshabinga yozg'uchisidan ko'ra ta'sirliroq yetkazadi”, degan edi. Haqiqatan, hayajon bosib, nazardagi aktyorlarimiz ham, rejissorlarimiz ham ko'proq yaqin o'tgan zamondagi tafsilotlarga berilib, kelgusidagi rejalar, istiqbol tomon yo'llayotgan “Tirik tarix” kinoloyihasi uncha e'tibor qaratilmadi. Vaholanki, Prezidentimizga, avvalo, shu boradagi fikr-mulohaza va amaliy takliflar muhim edi.

Sababi, bu tadbir xalqimizning uch ming yillik tarixi, Birinchi, Ikkinchi Renessans, jaddidchilik davrlarida yuz bergan tom ma'noda burlish, intilish, yuksalish hodisalar, chor hukumati va qizil sho'rolar hukmronligi istibdodi tufayli Turkiston sarhadining parchalanib tanazzulga uchrash, millat oydinlari bo'lgan buyuk olimu allomalar, dinu diyonat peshvolar, jasur sarkarda, yo'lbo'shchi ajdodlarimiz, dunyo tamadduniga o'zbek xalqining benazir hissi haqida kelgusida yaratiladigan filmlar xususida salmoqli, asosli, jo'yali mulohaza va takliflar mavridi edi.

Uzoqqa borishga zarurat yo'q: o'zbek kinოსining qariyb yuz yillik kechmishini bir xayoldan o'tkazaylik. Milliy respublikada shakllantirilish rivojlanirgan kinotarmoq, asosan, faqat nomilliylikka, millat tafakkurini, tili, dinini buzishga, qizillashtirishga xizmat qilib keldi. “O'zbekfilm” xalq tilida hatto “Bosmach film”, deya istehzo bilan tilga olinadigan bo'ldi. Vatanparvar shoirimiz Muhammad Yusuf “O'zbekfilm”, cho'pchalarning jonga tegdi”, deb ham yozdi. O'zbekning Ibrohim Rahim, Odil Yoqubov, O'lmas Umarbekov, Farhod Musajonov, Omon Muxtor, Sharof Boshbekov kabi qalbi dardli, millatsuyar adiblari turli davrlarda bu dargohda mehnat qilib, “Qizil qo'rg'anni zabt etib bo'lmas ekan”, deya armon bilan o'tdi. Chunki bu “qo'rg'on”da asosiy hal qiluvchi kuch kommunistik alvon shiorlar bilan batamom o'rab tashlangan, o'yilab-fikrlasda, yozib-chizsa, so'yilasa-da, faqat “katta og'a”lardan ulgi oladigan, jamiyat, oila, turmush, farzand-zurriyot tarbiyasi o'lchov-mezonini ulaming umrguzaronlik tarziga taqlidan belgilab qurib, o'z tilidan, urf-odat, an'analardan orlanib yashayotgan, ismi-sharifiga ko'ragina millatdosh bo'lgan “kinochi”lar edi.

Bugun xotirimizda saqlanayotgan qay bir filmni olmag, qizil mafkura yorlig'idan xoli emasdi. 1925-1991-yillardagi “O'zbekiston badiiy filmlarining muxtasar mazmunli katalogi”ni varaqilasangiz, shu davrlarda suratga olingan 325 ta badiiy filmlarning oltinsh-yetmish foizi yurtimizda qizil saltanatning qaror topib, ildiz otishi haqida bo'lsa, qolgan barchasi sovetcha g'oyaviylikning yorqin namunalarini. Albatta, bular orasida mumtoz namunalar hisoblanuvchi “Tohir va Zuhra”, “Alisher Navoiy”, “Ibn Sino”, “Abu Rayhon Beruniy”, “Furqat”, “Ulug'bek yulduzi”, “Nodirabegim”, “O'tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” kabi tarixiy mavzulardagi filmlar ham bor. Lekin bundoq do'ppiini boshdan olib, sinchiroq nazar bilan ko'rsilsa, bu filmlarning tomirida ham aynan kommunistik mafkura ko'pchib turibdi.

Ezuvchi va eziluvchi — boy-u kambag'al, shoh-u avom, saltanat va ma'rifati, diniy mutaassiblik, jaholatga belangan asiy tarixlar, Rusiya istibdodidan topilgan najot, qoloq va zabun turish-turmush kabi kommunistik tarbiya kitoblari, darslik-qo'llanmalarida bitilgan tushunchalar qayd etilgan va nomlari sanalmagan deyarli barcha filmlarning asosiy konflikt manbai va mavzusi edi. Biroq g'oya har qancha soxta, yot-begona va tuban bo'lmagan, uni san'at vositasida jolibodir etib, tomoshabinni mahliyo qilish bosh maqsad edi. Bu maqsad yo'lida o'n yillar davomida mahalliy iste'dodlarni o'z ta'siriga tortish uchun juda katta harakatlarga kechdi. Ta'siriga tortilmagan sakshalar

kallaklandi, o'tildi, osildi, surgun qilindi, kamida qalbi, og'zi, ko'ziga “mil” tortildi. Eng maqbul usul esa mahalliy iste'dodlarni go'dak pallasidan o'z domiga tortish, mustabidlar tili, madaniyati, ma'rifati bilan o'rab olib, singdirib yuborish edi. Shunday bo'ldi ham. O'zimizdan chiqqan baloga endi davo qayda ekaniga lolu hayron bo'lib o'tiribmiz. Eng achinarlisi, o'sha oqu qizil mafkurani singdirishga mas'ul etilgan “duragay” milliy rejissorlar va senariychilar buyuk va iste'dodli aktyorlarimizdan g'oyat unumli foydalandi. Biz bugun o'sha mafkurasi begona mumtoz asarlar, xususan, kinofilmlarga buyuk aktyorlarimizning betakror, benazir, hayotiy, xalqchil va yuksak badiiy mahorati tufayli maftun bo'lib, ko'zimizga surtamiz. Ular ijro etayotgan obrazlar, badiiy lavha, voqea-hodisalarning mohiyatiga sinchkov nigh tashlamaymiz. Ijro yuksakligidan masruru mahliyo tan berib, o'sha filmlarni alqab yuramiz. Oxirgi oylarda “O'zbekiston tarixi” telekanalida kinomiz tarixiga bag'ishlangan qator ko'rsatuvlar, intervyular efigra uzatildi. Shular orasida 1966-yili ishlangan “Laylak keldi, yoz bo'ldi” (o'rischa nomi “Белые, белые аисты”) filmiga bag'ishlangan ko'rsatuv ham ikki-uch bor ko'rsatildi. Diqqat bilan ko'rib, telekanal mutasaddilariga murojaat qildim.

Gruziyadan ham taklif etilgan. Bularning bari o'zbek qishloqlari turmush tarzi va odamlarini qoloq, johil, shafqatsiz, tuban va mutaassib qilib ko'rsatishga qaratilgan, mustabid qizil imperiyachilik g'oyaviy-mafkuraviy maqsadlariga xizmat qildirilgan edi. Bu filmlarning ilk premyerasi 1967-yil yanvarida Moskvada o'tkazilib, “markaz” munaqqidu tomoshabinlari tomonidan ayni ko'zlanganidek “qizg'in” fikrlarga sabab bo'lgan.

Shunday filmlar qariyb bir asrki xalqimizning necha avlodi ongu shuurini zaharlab, zabt etib kelgan. “O'zbekfilm”ga qo'rqinch yo'riqlari muhrlandi. Milliylik o'rimga soxta baynalmillilik, insoniy munosabatlar o'rimga soxta salohiyat mazmun adabiyotimiz va san'atimiz kabi kinomizning ham bosh maqsadi bo'ldi. Uning o'tgan asr 20-30-yillaridan boshlangan “salb yurishi” muvaffaqiyatli kechib, ne-ne “zafar”lar quchib, endi oqovasi mustaqillik davri kishilari ongu xotirasidan ham hanuz chiqib ketmaypti. Boz ustiga, uzoq-yaqindan tez-tez eshitilib qolayotgan sobiq ittifoqchilik sadolari ana shunday filmlarga qo'r berib, yana yo'l ochyapti. Shunday filmlar yaratgan manqurtsifat rejissorlar endi yosh iste'dodlar safiga ko'z tikib, o'z mafkuraviy sog'inchini singdirishga urinyapti.



“Ko'rsatayotgan filmlingizni avval o'zlaringiz jiddiyroq ko'rib olasizlarmi?” deb so'radim. Filmdagi voqealar syujetiga ko'ra, ota-ona xohishi bilan oila qurgan ayol — Malika o'z yaqinlariga qarshi bosh muhabbatiz oildan voz kechadi va qoloq urf-odatlariga qarshi isyon ko'taradi. Xuddi shunday: boshqa qishloqli Qayum ismli yigit ham ota-ona istagiga qarshi uylanmay, uyidan qochib ketadi. O'sha ayolning qishloq'iga kelib, uni sevib qoladi. Ayol ham unga ko'ngil qo'yadi.

Ana endi jazavaga tushgan ota-onalarni ko'ring. Bu qariyalar obrazini Hikmat Latipov, Lutifxon Sarimsoqova, Saida Aliyeva, ayolning aka-ukasini Razzoq Hamroyev va Javlon Hamroyev, qishloqdoshlarini Rahim Pirmuhamedov, Soyib Xo'jayev, Sayfi Olimov, Soat Tolipov hamda turli katta-kichik shaxslarni Sayram Isayeva, Bolat Beyshinaliyev, Lola Badalova, Muhammadjon Rafiqov, Rustam Sa'dullayev, Vahob Abdullayev, Rajab Adashev, To'g'on Rejimetov, O'ktam Luqmonova, Mukambar Rahimova, Melis Abzalov kabi atqli san'atkorlar o'ynagan. Aktyorlar yana Tojikiston, Qirg'iziston, Rossiya,

“Tirik tarix” kinoloyihasi aynan shu o'tmishning imperiyacha tushunchalarini batamom sindirib, yo'qotib, bugungi va kelajak avlodlar qalbi, ruhiyatini o'z milliy o'tmishi, tarixi uchun g'urur tuyg'ulariga to'ldirish, vatanparvarlik hissiyatini sharaf va saodat, deb bilishiga xizmat qilmoqchi lozim.

Vatanparvarlik xususida Prezidentimizning ushbu gaplari yig'ilishdagi aksariyat ishtirokchilarga yashin urgandek ta'sir qildi: “Yaqin-yaqingacha harbiy sohaga qiziqqan bolalarimizni Jaloliddin Manguberdi, Amir Temurdek bobolari qilib, “Suvorovchilar maktabi”da o'qitib keldik. Mana qanday film qilish kerak. Bugun endi “Temurbeklar maktabi”, Prezident maktablari farzandlarimiz uchun eshiklarini ochib turibdi. Turli zamonaviy ilmlarni, murakkab matematik amallarni o'zlashtirayotgan ming-minglab bolalarimiz o'syapti. Ammo ularning matematik bo'lishi shart emas, farzandlarimiz, avvalo, vatanparvar bo'lishsin!”

Ha, vatanparvarlar yurtini hech bir mustabid asoratga, istibdodga sololmaydi. Biz mustabidlik deganda, kechmish tariximizning



qadim yunonun fors istibdodi, Qurush (Kir)dan boshlab, Makedonskiygacha, arabu mo'g'ul, safaviyu jung'or, oqu qizil chor va sovetlar Rossiyasining xalqimiz boshiga solgan ne-ne shafqatsiz qirg'inbarotini va ularga qarshi matonat bilan kurashgan jonfidu bobolarimiz, podshohu sarkarda, yovqur bahodirlarimiz bilan bog'liq voqea-tarixlarini nazarda tutamiz.

Ana shular “Tirik tarix” kinoloyihasing, avvalo, muqaddimasi bo'lgan “Qadimgi davrlar” nomli bo'limi mavzular doirasini belgilagan. Biz “Shiroq”, “Afrosiyob”, “Guloyim va qirg'iz” tarixi orqali ona zaminimizga qilingan tajovuz hamda unga qarshi mardona kurashgan bahodir ajdodlarimizni yoshlarimizga ibrat timsoli sifatida jonli, badiiy lavhalarda namoyon etamiz. Shoyadki, farzandlarimiz bobolarini, o'zligini tanib, ko'hna, mo'yasafid tariximizni buyuk shoirimiz Erkin Vohidov she'riy lafzidek “O'zbekim” istilohi tushunchasi orqali idrok etsa va sharaflassa, g'urur-iftixor tuysa.

Prezidentimiz nafaqat qadimgi davrlar, balki o'tgan barcha ming yilliklarni, to shu kungacha kechmishlarimizni qahramonlik kurashlari tarixi deb ko'rsatmoq'imiz kerakligini uqtirib, “Yoshlarimizni shu yo'l bilan kino orqali o'lga olishimiz, shiddatkor global dunyoning yot g'oyalardan asrab qolishimiz mumkin”, dedi. O'sha paytda xayolimda yana 2017-yil 3-avgustdagi ijodkor ziyolilar bilan subhat jonlandi.

Davlatimiz rahbari tarixiy bu mashvartada ma'naviyatimiz, adabiyotimiz, san'atimiz, jumladan, kinosan'atimiz borasida alohida to'xtalib, kinoning bugungi dunyodagi o'rni va undan O'zbekistonimiz manfaati uchun qanday foydalanishimiz kerakligi xususida quyidagi fikrni aytdi: “Agar biz ajdodlarimiz xotirasini ulug'lamoqchi, shu asosda o'zbek nomini, vatanparvarlik hissiyatini sharaf va saodat, deb bilishiga xizmat qilmoqchi lozim.

Vatanparvarlik xususida Prezidentimizning ushbu gaplari yig'ilishdagi aksariyat ishtirokchilarga yashin urgandek ta'sir qildi: “Yaqin-yaqingacha harbiy sohaga qiziqqan bolalarimizni Jaloliddin Manguberdi, Amir Temurdek bobolari qilib, “Suvorovchilar maktabi”da o'qitib keldik. Mana qanday film qilish kerak. Bugun endi “Temurbeklar maktabi”, Prezident maktablari farzandlarimiz uchun eshiklarini ochib turibdi. Turli zamonaviy ilmlarni, murakkab matematik amallarni o'zlashtirayotgan ming-minglab bolalarimiz o'syapti. Ammo ularning matematik bo'lishi shart emas, farzandlarimiz, avvalo, vatanparvar bo'lishsin!”

“Biz faqat fidoyi mehnatimiz bilan o'zimizni hurmat qilishga dunyo hamjamiyatini majbur qilmasak, natija bo'lmaydi.”

“Agar biz ma'naviyatimizni, ma'rifatimizni yo'lga qo'yamiz, deb ayttsak, kinodek nurlu yo'limiz, kinodek nurlu kelajagimiz yo'q.”

Demak, oldimzda favqulodda jiddiy, ko'lamdor, ulkan vazifalar turibdi — kino orqali O'zbekistonni, tarixiy buguni, zahmatkash xalqi va hozirgi bunyodkor zamondoshlarimizni, ilm-ma'rifati, ziyoga intilayotgan yoshlarimizni film qahramonlariga aylantirib, betakror, o'ziga

xos obrazini yaratishimiz va ularni dunyo e'tirof etadigan darajada badiiy mukammal ko'rsata bilishimiz zarur. Davlatimiz rahbari shu oliy maqsad uchun mablag'ni ayamamaymiz, barcha imkoniyatni yaratamiz, deb aytdi. Bizdan pul sarflab, moddiy daromad keltirishni emas, ma'naviy barkamol jamiyat barpo etish va uni dunyoga tanitishda kambiasta, ta'bir joiz bo'lsa, ma'naviy lokomotiv bo'lishni so'radi. Yetti yillik kamtarona urinishlarimizdan muayyan qoniqish hosil etib, hatto “Hozir nima desanglar, “Ha”, deyman... Men sizlar bilan faxrlanamiz”, deya yuksak lut ko'rsatdi. So'zlarining tasdig'i o'laroq, poytaxtimizning naqd markazida oltmish yil avval ne-ne umid bilan qurilib, ne-ne ulug'lar nafasini his qilib yashab kelayotgan va bugun aynan davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tamomila yangi qiyofa, salobat, go'zallik, joziba kash etgan Kinochilar uyi — xalqimiz tilida “Panorama” deb nomlangan muhtasham kino maskanini kinoijodkorlar taklifiga ko'ra, “O'zbekiston Milliy kino san'ati saroyi” deb nomlashni va shunga munosib shart-sharoit, imkoniyat yaratishni to'la qo'llab-quvvatlash. Elik nomdagi kinoloyihalardan iborat strategik ahamiyatdagi kinodasturini ellik to'rtta to'rtta to'ldirib, dadil ishga kirishish uchun go'fotiba berdi. Prezidentimiz shunday ko'lamdor, mahobatli dasturni har tomonlama mukammal etib, hech bir jihatni e'tibordan qochirmay, tugal alfozda tasdiqqa kiritishni tayinlab, subhatga nuqta qo'ydi.

Albatta, bu ikki qismli, bir-birini to'kis to'ldirgan tadbir, ya'ni “Yangi O'zbekiston kinosan'ati muzeyi” ekspozitsiyasi bilan tanishuv va kinoijodkorlar bilan alohida subhat, shubhasiz, tarixiy voqea bo'lib qoldi. O'zbekona aytganda, hali izlar bosilmasidan, ertasi kuniyog is chiqarilib, kinochilarga bayram qilib berildi. Oradan yana uch-to'rt kun o'tib, “Kino — kelajakning nurlu yo'li” shiori ostida to'rt yuzga yaqin kinoijodkor ishtirokida Respublika Ma'naviyat va Ma'rifati markazini jalb etib, ma'rifiy-amaliy forum o'tkazildi. Prezidentimiz bilan uchrashuv va ko'rsatilgan e'tibor hamda “Tirik tarix” kinodasturini amalga oshirish yuzasidan bildirilgan ishonch, himmat uchun kinoanjonman ishtirokchilari nomidan “Tashakkurmoma — murojaat” qabul qilindi. Bular bari shukronalik, hayotdan, Prezidentimizdan rozilik, minnatdorkilik tuyg'ulari ifodasi bo'ldi. Bu qutlug' kunlar shukhi so'nmay, yana uning davomida dastlab Samarqand shahrida, so'ng mana shu yangi chiroq ochgan O'zbekiston Milliy kino san'ati saroyining muhtasham tomoshonasida “Bahodir Yalang'osh” nomli yangi epik tarixiy badiiy film taqdimotini o'tkazdik. Hazrat Alisher Navoiy ta'birini aytganda, har tunimiz Qadr-u, har kunimiz Navro'z bo'lib, shukhli kunlar safosi ila fayziyob bo'ldik.

Ana endi yangi ijodiy ishga, yaratishga, ulug'vor rejalarini, yangi kinoloyihalarni hayotga, haqiqatga aylantirish uchun katta jabhalarga o'tanib, ona zaminimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish uchun shitobu shiddat bilan fidoyilik ko'rsatmoqqa fursat yetdi. Akademik shoirimiz G'afur G'ulom aytmog'chi, “Fursat g'animatdir, shoh satrlar-la, Bezamoq chog'idir umr daftarin!”.

Turizm

MEHMONDO'STLIK ORTIDAN FAROVONLIK KELADI

Navoiyga bu yil 350 ming xorijlik sayyoh tashrif buyuradi

G'olib ABDUSALOMOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Shu hafta boshida Prezidentimiz raisligida turizmni yanada rivojlantirish bo'yicha ustuvor masalalar yuzasidan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda sohadagi ustuvor vazifalar va qilinishi lozim bo'lgan ishlar tanqidiy nuqtayi nazardan ko'rib chiqildi. Xususan, davlatimiz rahbari hozirgi murakkab geosiyosiy va iqtisodiy vaziyatda turizm kabi yangi ish o'rnini yaratadigan, investitsiya va eksportni ko'paytiradigan sohalarni qo'llab-quvvatlash zarurligini ta'kidladi.

Binobarin, Navoiy viloyatining ham sayyohlik salohiyati yuqori. Hududning tarixiy qadamlari, betakror tabiati, suv havzalari, cho'l kengliklari, qadimiy obidalar har qanday mehmonni o'ziga jalb qilishi tabiiy.

Ushbu maqolamizda Navoiy viloyatining asosiy drayverlaridan biriga aylanayotgan turizm yo'nalishida amalga oshirilayotgan ishlar xususida so'z yuritmoqchimiz.

Tog'lar bag'ridagi so'lim qishloqlar

Langar qishlog'i Xatirchi tumani markazidan 50 kilometr uzoqda, baland tog'lar orasidagi darada joylashgan. Qishloqqa yiliga 100 mingdan ziyod mahalliy va 2 mingdan ortiq xorijlik sayyoh keladi. Uning tabiati, toza havosi, milliy taomlari va mahalliy aholi hayotining o'ziga xos jihatlari hududda turizm rivojlanishida muhim omillar hisoblanadi. Shuningdek, hududdagi eski qo'rg'on qoldiqlari, Talizor qal'asi, qadimiy g'orlar, Langar maqbarasi, Oqsuv sharsharasi, Langarsoy sayyohlarning eng sevimli maskanlariga aylangan.

Ayni vaqtda qishloqda 20 dan ziyod oilaviy mehmon uyi, dam olish maskani hamda bir necha turdagi turizm xizmatlari tashkil etilgan va bu orqali mahalliy aholining ham bandligi ta'minlangan. Sayyohlar uchun gid, etnik animatsion, folklor ijrochiligi, hunarmandlik, milliy taomlar tayyorlovchi gastroxonadonlar, uy-muzeylar, otlarda sayr va agroturizm kabi xizmatlar yo'lga qo'yilgan.

Nurota nurlari

Sayyohlik sohasida Nurota tumanining o'ziga xos o'ri bor. Ayniqsa, ziyorat turizmidagi Chashma ziyoratgohi alohida e'tirofqa molik. Nur chashmasi tabiatning noyob tuhfasidir bo'lib, ma'lumotlarga ko'ra, bu mo'jiza murakkab tabiiy jarayonlar natijasida vujudga kelgan. Arxeolog olimlar chashma janubidagi qal'a tevarigidan topgan, qo'l bilan ishlov berilgan qadimgi topilmalar yuqori paleolit davrida ham bu manzilda odamlar yashaganini ko'rsatadi.

Dengiz sathidan 524 metr balandlikda joylashgan chashma suvi xushta'm, hidsiz, rangsiz, yumshoq, shirin bo'lib, tarkibida 20 xil mikroelement borligi aniqlangan. Harorati esa qishin-yozin bir xil. Chashmadagi baliqlar tabiatning betakror mo'jizasi.

Ziyoratgohda joylashgan Chilustun jome masjidi qurilishi X asrga borib taqaladi. Masjidga qadimda ishlatilgan quyosh soatining o'ri bor va aks sado beruvchi qadimgi ovoz kuchaytirgichlar keyingi ta'mirlash jarayonida saqlab qolingan.

Nurota tumanida sayyohlarni o'ziga jalb etuvchi yana bir so'lim maskan Sentob turizm qishlog'idir. Bu mo'jaza qishloq Nurota tog'larining shimoliy yonbag'rida joylashgan bo'lib, qariyb 3 ming kishi istiqomat qiladi.

U qadim tarixi, madaniy merosi, milliy qadriyatlar va urf-odatlar bugungi kunga qadar saqlanib qolgan bilan o'ziga xosdir. Qoyatoshlarga ishlangan V-VI asrlarga oid petrogliflar, tog' tepasidagi ko'hna qo'rg'on qoldiqlari, XI-XVIII asrlarga oid toshga o'yilgan yozuvlar hamda qishloqning eng yuqori nuqtasidagi Fozilmon ko'li diqqatga sazovor joylardir. Ayni vaqtda bu yerdan sayyohlarning qadami uzilmaydi.

Yurtimizda turizm salohiyati yuqori bo'lgan hududlarga "turizm mahallasi", "turizm qishlog'i" va "turizm ovuli" maqomi



berilmoqda. Xususan, Jahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasining Samarqand shahrida bo'lib o'tgan 25-sessiyasi doirasida Sentob "2023-yilning eng yaxshi turizm qishlog'i" deya e'tirof etilganini chekka bir hududning yangi imkoniyatlarini ochdi.

Aslida, turizmda yangi yo'nalishlar ochish, rivojlantirish nafaqat raqobatbardoshlikni, balki mamlakatimiz iqtisodiyotiga moliyaviy tushumlarni oshirishga ham xizmat qiladi. Eng muhimi, milliy turizm brendi yurtimiz imijiga ijobiy tus beradi. Birgina Sentob turizm qishlog'ida ushbu tarmoq sabab ishsiz 300 nafarga yaqin kishi, jumladan, xotin-qizlar doimiy ish bilan band bo'ldi. 20 dan ortiq oilaviy mehmonxona, ko'plab ovqatlanish shoxobchalari, hunarmandlik ustaxonalari va savdo rastalari sayyohlarga xizmat ko'rsatmoqda.

O'tgan yillarda Sentob infratuzilmasini yaxshilash uchun 20 milliard so'mdan ziyod mablag' ajratildi. Yo'llar ta'mirlanib, elektr energiyasi va ichimlik suv ta'mini, mobil aloqa sifati yanada yaxshilandi. Qishloqqa 15-20

kilometr yaqin masofada Aydarko'l joylashgani ham bu yerga sayyohlarni jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bu kabi maskanlarda tadbirkorlik ham jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Turizm mahallalaridagi tadbirkorlar 3 yil davomida aylanmadan olinadigan soliqliq va ijtimoiy soliqliq 1 foiz stavkada, mol-mulk, yer, suv soliqlarini hisoblangan summadan bor-yo'g'i 1 foizini to'lash tizimi joriy etilgan.

— "O'zbekiston — 2030" strategiyasida

Sahrodagi javohir

Qiziltepa tumanining turizm salohiyati boshqa hududlaridan qolishmaydi. Bir tomondan Malikcho'l sahrosiga, ikkinchi tomondan Buxoro viloyatiga tutash bu zamin azaldan mehnatkash xalqi, ishbilanmon insonlari bilan viloyatda o'z o'rniga ega. Birgina Zarmetan qatig'ining dovru'g'ini eshitgan kishi bo'lmasa kerak. U shifobaxshligi va tayyorlanish uslubini hech qayerda uchramasligi bilan ajralib turadi. Qiziltepa viloyati, bu yerdan tayyorlangan qatig' solingan kosani teskari tusa ham to'kilmaydi. Tumanga kelgan inson borki, qatig'ingni totmay ortga qaytmaydi. Bu, o'z navbatida, hududda gastronomik turizm rivojida muhim ahamiyatga ega. Hozir M-37 magistral yo'lida Zarmetan qatig'ining sotuv punkti tashkil qilingan, undan tatib ko'rgan sayyohlarda tayyorlanish jarayonini ko'rish istagi ham paydo bo'lishi, shubhasiz.

Tumanning turizm salohiyatida To'dako'l suv havzasi alohida o'rin tutadi. Sahrodagi javohir, deya ta'rif beriladigan bu maskanda barcha qulayliklarga ega dam olish maskanlari tashkil etilib, plyaj turizmi yo'lga qo'yilgan. Sohil bo'yida barpo qilingan plyaj, sog'lomlashtirish maskani va akvaparkning umumiy qiymati 6 million dollar. Ochiq osmon ostida o'tkaziladigan bir-biridan qiziqarli konsert va shou-dasturlar mehmonlarning maroqli dam olishi uchun xizmat qiladi.

Sohil atrofidagi dam olish maskanlari



bir vaqtning o'zida 2500 sayyohga xizmat ko'rsatish quvvatiga ega. Hududda yangi plyaj, turizm zonalar, dam olish maskanlari, oilaviy mehmon uylari soni ortib bormoqda.

Bundan tashqari, To'dako'l'da baliq ovlash va undan mazali taomlar tayyorlash jarayonlari, taomlarning o'ziga xos mazasi sayyohlar uchun qiziqarli jihatlardan.

Tumandagi XVI asrga mansub Toshmasjid hamda Boyazid Bistomiy ziyoratgohlari yil davomida sayyohlar bilan gavjum bo'ladi. Bugungi kunda nafaqat mahalliy, balki xorijlik sayyohlarni jalb etib kelayotgan Toshmasjid me'moriy yodgorligi va minorasi 1583-1585-yillarda Abdullaxon davrida barpo etilgan. U o'sha davrlarda Buxoro sharifida juda katta nufuzga ega bo'lgan juyborylar vakili bo'lmish Xo'ja Sayyid Juyboriy homiyligida tiklangan. Umumiy hajmi 27x24 metrdan iborat bo'lib, balandligi 18 metrga yetadigan imorat Markaziy Osiyoda pishiq g'ishtdan ishlangan ustun-gumbazli mahobatli inshootlar rivojining cho'qqisi darajasiga yetgan, deya e'tirof etilgan. Toshmasjid hovlisidagi Vang'oz minorasi ham shunday uslubdagi inshootlardan betakrori hisoblanadi. Uning balandligi 27,5 metr. Minora tepasiga tut yog'ochidan ishlangan 56 ta aylana ichki zinadan chiqish mumkin. Pastki qismining esa aylanasini 8 metr bo'lib, pishiq g'isht va ganch aralashmasidan ishlangan. Ba'zi taxminlarga ko'ra, minoraning yoshi yanada qadimiyroq bo'lgani ehtimoli ham bor. Obida oldida katta yo'l bo'lib, mahalliy aholi uni "Amir yo'li" deb atagan. Chunki qadimda Buxoro amirlari Karmanaga aynan shu yerdan o'tgani manbalarda keltiriladi va shu jihatlari bilan ham bugun mazkur ziyoratgoh ko'plab sayyohlarni jalb etmoqda.

2023-yilda Qiziltepa tumaniga 6 mingdan ziyod xorijlik, 70 mingdan ortiq mahalliy sayyoh tashrif buyurdi. Qo'shni Samarqand va Buxoro viloyatlaridagi turkompaniyalar bilan sayyohlarni ko'proq jalb qilish bo'yicha hamkorlik yo'lga qo'yilgani bu borada ijobiy samara bermoqda.

Ochiq osmon ostidagi muzey

Navoiy viloyatining turizm salohiyatida Sarmishsoy darasi muhim o'rin tutadi. Mazkur

aksariyati bronza davriga tegishli. Shuningdek, ular orasida eneolit, neolit va hatto mezolit davrining oxirlari, Sako-Skif davriga oid bir qancha tasviriy suratlar mavjud.

Toshlarga o'yib chizilgan rasmlarning barchasini bir qarashda ilg'ab olish mushkul. Tongda, tushlik vaqti, quyosh botayotganida va faqat yomg'ir yoqqandagina ko'rinadigan tasvirlar bor. Qoyatoshdagi rasmlar bundan qariyb 5-7 ming yil ilgari bu yerda uy hayvonlarini xonakilashtirib, o'troq yashagan aholi tomonidan chizilgan aniqlangan. Ayni vaqtda ushbu ma'lumotlar tizimlashtirilib, xorijlik sayyohlarni jalb qilish maqsadida turli tillarda elektron kontentlar yaratilmoqda.

Sarmishsoy hududi yerdagi eng katta tosh san'at galereyasi sifatida ham tanilgan. Uning maydoni 20 kvadrat kilometr bo'lib, bu yerda qadimgi dunyo va o'rta asrlar tarixi yodgorliklarining madaniy-tarixiy majmuasi saqlanib qolgan. Bugungi kunda Sarmishsoydagi dam olish maskanlari bir oyda o'rta 2000-3000 mahalliy, 1000-1500 xorijlik sayyohni qabul qilish imkoniyatiga ega.

Ma'lumotlarga ko'ra, o'tgan 2023-yilda viloyatga 160 mingga yaqin xorijlik, 1 million 400 mingdan ortiq mahalliy sayyoh kelgan. Shuningdek, 39,7 million AQSH dollari miqdorida turizm xizmati eksporti amalga oshirildi. Umumiy qiymati 138 milliard so'mlik 44 loyiha ishga tushirilib, ular hisobiga 431 ta yangi ish o'rni yaratildi. Natijada viloyatdagi mehmonxona va oilaviy mehmon uylari soni 210 taga, o'rinalar soni esa 6227 taga yetkazildi. O'tgan yil davomida 24 ta yangi turkompaniya ochilib, ayni vaqtda 49 tani tashkil etmoqda.

Viloyatda turizm sohasi rivojida hududlardagi infratuzilmalar muhim rol o'ynaydi, — deydi viloyat Turizm boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Dilshod Xo'jayev. — O'tgan yilda 96 milliard so'm hisobiga viloyatdagi turizm obyektlariga olib boruvchi 44,3 kilometr yo'l-transport infratuzilmasi yaxshilandi. Navoiy shahrida turizm va gastronomik ko'cha tashkil qilindi. Sarmishsoy davlat muzey qo'riqxonasida kirish darvozasi va avtoturargoh qurildi. Umuman olganda, sohadagi yangiliklar, chora-tadbirlar samarasini bermoqda. Jumladan, UNESCO Jahon merosi qo'mitasining Saudiya Arabistoni Ar-Riyod shahrida bo'lib o'tgan yig'ilishida Buyuk ipak yo'lining Zarafshon — Qoraqum koridori umumjahon merosi ro'yxatiga kiritildi. 2024-yilda Sentob turizm qishlog'i namunasida Xatirchi tumanidagi Langar, Angidon, Nurota tumanidagi Chuya mahallalariga "Turizm mahallasi", "Turizm qishlog'i" maqomini olish rejalashtirilgan.

2024-yilda viloyatga 350 ming xorijlik sayyohni jalb qilish orqali sohadagi eksport hajmini 87,5 million dollarga yetkazish ko'zda tutilgan. Shuningdek, ichki turizmni rivojlantirish dasturlari vositasida 2,2 million mahalliy sayyoh jalb qilinadi.

Viloyatning cho'l hududlarida safar turizmi yo'nalishi ham tobora rivojlanib bormoqda. Bu tuya hamda kvadratsiklda sayr va ov qilish, tuya sut bilan davolash jarayonlari o'z ichiga oladi. Joriy yilda ham yo'nalishda qo'shimcha dam olish maskanlari va xizmatlarni tashkil etish ko'zda tutilgan.

Bir so'z bilan aytganda, Navoiyda sayyohlar kelib, hordiq chiqarishi uchun jozibador loyihalar amalga oshirilishi viloyatning turizm salohiyati yanada yuksalib, imkoniyatlari kengayib borishida muhim omil bo'layotir.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriq qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 1940.
44065 nusxada bosildi.
Gazetaning ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Navbachi muharrir: Bashorat Yunusova
Musahhib: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy